UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI FANINI O'QITISHDA INTERAKTIV VA INNOVATSION PEDAGOGIK USULLARDAN FOYDALANISH

O'tkirbek O'rinov

BuxDPI 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali umumta'lim maktablarida davlat va huquq asoslari fanini o'qitishda qo'l keladigan zamonaviy metodlar haqida ma'lumotlar berilgan. Har bir darsni qiziqarli va interaktiv metodlardan foydalanib dars o'tish orqali o'quvchilar bilimini yanada oshirish bugungi kun talabi hisoblanadi.

Kirish so'zlar: Davlat va huquq asoslari, Konstitutsiya, qaror, qonun, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik.

Bugungi kunda o'quvchilarni, kelajak yoshlarini huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish davlat va huquq asoslari fanining bosh maqsadi hisoblanadi. Milliy huquq tizimini asosi bo'lgan Konstitutsiya bilan qonunlar, qarorlarni o'rganish orqali o'quvchilarni xalqaro maydonda o'z fikrlarini yanada erkin namoyon eta oladilar. Bugungi kunda davlatimizda olib borilayotgan islohot-lar har tomonlama rivojlanishning bosh maqsadi xalqimiz hayoti farovonligi va to'kinligini ta'minlashdan iborat. Bu islohotlarni amalga oshirishni jadallashtirish xalqimiz, ayniqsa, kamol topib kelayotgan yoshlarni huquqiy savodxonligi, huquqiy madaniyati bilan bevosita bog'liq. Shu sababli, bugungi kunda umumta'lim maktablarida davlat va huquq asoslari fanini o'qitishda Konstitutsiya, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va farmoyishlari, qarorlar hamda qonunlarni o'qitishda pedagogik usullardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Har bir darsning didaktik xususi-yatini hamda o'quvchining yoshini hisobga olib har bir darsda tur xil interaktiv hamda interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqish-larini oshishiga hamda fanni yaxshi o'zlashtirishiga olib keladi.

10-11-sinf o'quvchilari davlat va huquq asoslari fani orqali oila huquqi, fuqarolik huquqi, xalqaro huquq hamda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi moddalarni o'rganishadi. Ushbu sinf o'quvchilariga huquqiy adabiyotlardan keng foydalanish mumkin. 10-sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlashini oshirish hamda mulohaza yuritish maqsadida takrorlash va ijodiy faoliyat darslarida turli xil huquqiy vaziyatlarni o'rganib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Davlat va huquq asoslari fanida "3 rost va 1 yolg'on" metodidan foydalanish yaxshi samara beradi. Ushbu metodni har bir sinfda o'tkazish mumkin. O'qituvchi tomonidan darsdan oldin har bir tarqatmaga 4 ta ma'lumot yoziladi. Ushbu ma'lumotlarning uchtasi rost ma'lumot, bittasida esa ma'lumot yozishda biroz xatolikka yo'l qo'yiladi. Darsning o'tilgan mavzuni mustahkamlash qismida foydalanish mumkin. Mavzuga oid atamalar, olimlar fikrlari hamda Konstitutsiya moddalaridan foydalanib, ushbu metoddan foydalanish mumkin. Ushbu metod orqali o'quvchilarda topqirlik, ziyraklik fazilatlari shakllanadi.

1-tarqatma:

1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8-moddasida shunday deyilgan: “O’zbekiston xalqini millatidan qat’i nazar, O’zbekiston Respublikasining fuqa-rolari tashkil etadi.

2.O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 22-moddasida shunday deyilgan: “O’zbekiston Respublikasining butun hududida yagona fuqarolik o’rnatiladi. O’z-bekiston Respublikasining fuqaroligi, unga qanday asoslarda ega bo’lganlikdan qat’i nazar, hamma uchun tengdir.

3.O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 34-moddasida shunday deyilgan: “Har kim fiklash, so’z va e’tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim istalgan axborot-ni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega. Davlat Internet jahon axborot tarmog’i-dan foydalanishni ta’minlash uchun shart-sharoit yaratadi.

4.O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida shunday deyilgan: “Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g’amxo’rlik qiladi.

Ushbu tarqatmada 3-fikr xato berilgan, ya’ni ushbu modda 33-modda hisoblanadi. Guruhlarga ushbu tarqatma berilganda, o’quvchilar xato ma’lumotni izohlashlari kerak. O’quvchilar fikrlarini erkin tarzda bayon etishda ham ushbu metod foydali hisoblanadi.

O’quvchilar bilan birgalikda “Huquqiy battl” metodi fanni o’zlashtirishda yordam beradi. Ushbu metod orqali o’quvchilarda ma’lumotni eslab qolish, to’g’ri va aniq mulohaza yuritish hamda mavzuga oid bilimlarni yaxshi o’zlashtirishga olib keladi. Ushbu metodda sinf 2 guruhga bo’linadi, har bir guruhga bitta mavzu beriladi. O’quvchilar shu mavzu asosida o’quvchilar ma’lumotlar berishadi. Tez va aniq ma’lumotlar bergan guruh g’olib deb topiladi.

“Pazzle” metodi. Ushbu metodda o’quvchilarda Konstitutsiya moddalari chalkashtirib beriladi. O’quvchilar tezkorlik va aniqlik bilan so’zlarni tartiblab, Konstitutsiya moddasini aniqlashlari lozim. Ushbu metod orqali o’quvchilarda topqirlik, chaqqonlik, ziyraklik fazilatlari shakllanishi bilan bir qatorda, Konstitutsiya moddalarini bilishlari ham sinovdan o’tadi.

Bugun shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda o’quvchiga zerikarli ma’ruza-lar hamda metodlardan foydalanish yaxshi samara bermaydi hamda o’quvchining fanga bo’lgan qiziqishlarini susayishiga olib keladi. Talabchan, har doim o’z ustida ishlaydigan o’qituvchi doimo darsiga o’z o’quvchilarini darsga jalb qila oladi hamda o’quvchilarning darsga bo’lgan qiziqishlarini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1.O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil 1-may.

2.X.Tuychiyeva, A.Hakimov va boshqalar. 10-sinf davlat va huquq asoslari (darslik). Toshkent-2023

3.N.Ismatova, O.Karimova. 11-sinf davlat va huquq asoslari (darslik). Toshkent “Yangiyul Poligraph Service”-2018